



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 30-iyul

118-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28,73-moddalariga, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-102-sonli Farmoni ijrosi ta'minlash to'g'risida

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli Farmoniga muvofiq, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida joriy yilning 18-iyunidan «Farg'ona» chegara-bojxona posti hamda Shohimardon qishlog'iga o'tishdagi «Oq qiya» bojxona punktining ish tartibi uzluksiz 24 soatlik ish rejimiga o'tkazilganligini inobatga olgan holda, ichki sayyohlarni jalb qilish va aholiga qulayliklar yaratish maqsadida «Farg'ona» chegara-bojxona postiga kirish qismida navesli yurish yo'lagi hamda kichik savdo rastalarini tashkil etish xarajatlari uchun jami 257,0 (ikki yuz ellik yetti) mln.so'm miqdorida mablag' tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi zaxira jamg'armasi hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

2.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga ajratilgan mablag' bo'yicha tuman Obodonlashtirish boshqarmasining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, tuman G'aznachilik xizmati bo'limi (A.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov)ga ajratilgan mablag'ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimi o'rinbosarlari O.Abduraximov va M.Qodirxonovlar zimmalariga yuklatilsin

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T